

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MIRKASIMOVA MADINA BAXADIROVNA

**NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHDAGI TALABALARNI
UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASINI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Mirkasimova Madina Bahodirovna

Nofilologik ta'lim yo'nalishdagi talabalarni umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish..... 3

Миркасимова Мадина Баходировна

Совершенствование общекультурных компетенций студентов нефилологического направления..... 22

Mirkasimova Madina Bahodirovna

Improving the general cultural competence of non-philological education students..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MIRKASIMOVA MADINA BAXADIROVNA

**NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHDAGI TALABALARNI
UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASINI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Ped578 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Guljaxan Yermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xolmurodova Dilnoza Xolmurod qizi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27 uy. Tel.: (99871) 276 -82-32; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika univesiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: (99871) 276 -56-87; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, ped.f.d.,prof

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, ped.f.n.,dotsent

S.S.Bulatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, ped.f.d.,prof

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasini annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqaro aloqalarning kengayishi va integratsiyalash sharoitida xorijiy tillarni o'zlashtirish, madaniy dialogga kirisha oladigan mutaxassislarni tayorlashning innovatsion modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarning millatlararo, umummadaniy va lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mobilligini millatlararo va kommunikativ madaniyat bilan uyg'unlashtirishning lingvodidaktik jihatlarini takomillashtirishga doir amaliy loyihalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida xorijiy tillarni axborot texnologiyalari vositasida o'qitish, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish, universitet ta'limi jarayonida talabalarning aksiologik potensialini tarkib toptirish, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini madaniy-insonparvar yondashuv asosida shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarning o'zga tilli kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish modelini loyihalash, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga doir konseptual yondashuvlarni joriy etish, ularning didaktik parametrlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda songgi yillarda talabalarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirish, xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, xorijiy tillar bo'yicha umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilish kabi umummadaniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish"¹ ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2019-yil 8-oktabr. PF-5847-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон.

chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy takomillashtirishda, innovatsion g'oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda oliy ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, pedagogik ta'limni axborotlashtirish masalalari B.Abdullayeva, U.Begimqulov, R.Djurayev, R.Isyanov, Sh.Sharipov; uzluksiz ta'lim tizimida umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari G.Kuldasheva, B.Gappirov, D.Ruzmetova, Sh.Taylanova; oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy tilni o'qitish imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari L.Axmedova, N.Axmedova, M.Gulyamova, J.Jalolov, U.Jumanazarov, G.Maxkamova, G.Maxsudova, D.Pulatova, F.Rashidova, K.Riskulova, T.Sattarov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari N.Almazova, V.Bezrukova, V.Apalkov, T.Banshikova, N.Barishnikov, V.Borisenkov, S.Dortman, L.Kostikova, A.Liferov, A.Sadoxin, Ye.Vereshagin, Ye.Voyevoda, V.Gumbolt umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik o'ziga xosliklari, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarining umummadaniy kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan.

J.Betancourt, D.Butties, J.Clark, M.Dasli, F.Dervin, L.Kostikova, A.Fantini, R.Fischer, O.Fedotova, E.Zritneva kabi xorijlik olimlar millatlararo, kommunikativ va umummadaniy muloqot kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik, lingvodidaktik va metodik jihatlarini shaxs madaniyati kontekstida tadqiq etgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan (2017-2019-yy.).

Tadqiqotning maqsadi nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umummadaniy kompetensiyalarni lingvistik komponentga ustuvorlik berish asosida rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish;

nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish;

talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetining 465 nafar talabasi jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi anketa, test, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba-sinov, ekspert baholash, modellashtirish, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasini (ichki anglash) aniqlash, madaniyatlararo muloqotga kirishish layoqati bilan bog'liq aksiologik-affektiv, kognitiv-kommunikativ faollikka yo'naltirilgan lingvistik komponentning ustuvorlik kasb etishini barqaror hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik xususiyatlari professional faoliyat sohasidagi milliy-madaniy o'ziga xosliklarni komparativistik (qiyosiy) tahlil qilish, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi tushunchalarni o'zlashtirish va matnlar tuzishga yo'naltirilgan o'quv-bilish faoliyatining individualligi va personifikatsiyasi yaxlitligini izchil ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi xorijiy tillarni kasbiy sohaga yo'naltirishga qaratilgan shaxsiy-faoliyatli yondashuvning didaktik imkoniyatlarini adekvat baholash hamda pragmatizm, madaniy dialog, sub'yektivlik, funkcionallik tamoyillarining qayta aloqaga kirishish intensivligiga progressiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish modeli texnologik blok, o'quv loyihasi, mini debat, Barcamp, ishbilarmonlik o'yini, onlayn viktorina, SWOT-tahlil, POPS formulasi, "Qarorlar daraxti" kabi integrativ o'qitishga yo'naltirilgan kontekstli va tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalarini didaktik mazmunga ko'ra bosqichma-bosqich loyihalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda diagnostik usullari ishlab chiqilgan;

xorijiy tillarni kasbiy sohaga yo'naltirib o'qitishning takomillashtirilgan o'quv dasturi yaratilgan;

talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning kontentiga doir integrativ didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi qoʻllangan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslangani, nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “kompetensiya”, “yondashuv”, “kompetensiyaviy yondashuv”, “umummadaniy kompetensiya” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati mualliflik nuqtai nazarlaridan ochib berilgani, umummadaniy kompetensiyaning tuzilmasi va komponentlari aniqlangani, nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari, xorijiy tillarni kasbiy sohaga yoʻnaltirib oʻqitishning lingvodidaktik jihatlarini yoritilgani, mazkur jarayonni amalga oshirishga doir metodologik yondashuv va tamoyillarning didaktik imkoniyatlari ochib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli, oʻquv loyihasi, mini debat, Barcamp, ishbilarmonlik oʻyini, onlayn viktorina, SWOT-tahlil, POPS formulasi, “Qarorlar daraxti”, Zoom platformasidagi videokonferensiyalar va kontent-tilga doir integrativ oʻqitish (CLIL) kabi oʻzaro uygʻun elementlardan tarkib topgan kontekstli va tabaqalashtirilgan taʼlim texnologiyalari hamda didaktik taʼminotining takomillashtirilgani, xorijiy tillarni kasbiy sohaga yoʻnaltirib oʻqitishning takomillashtirilgan oʻquv dasturi yaratilgani, nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini baholash mezonlari va koʻrsatkichlari hamda diagnostik usullari, xorijiy tillarni oʻqitish jarayonida talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish boʻyicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasini aniqlash, madaniyatlararo muloqotga kirishish layoqati bilan bogʻliq aksiologik-affektiv, kognitiv-kommunikativ faollikka yoʻnaltirilgan lingvistik komponentning ustuvorlik kasb etishini barqaror hisobga olish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “ESP PART I” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020-yil 4- maydagi 285-son buyrugʻiga asosan berilgan 285-110-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning lingvodidaktik xususiyatlarini professional faoliyat sohasidagi milliy-madaniy oʻziga xosliklarni komparavistik tahlil qilish, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi tushunchalarni oʻzlashtirish va matnlar tuzishga yoʻnaltirilgan oʻquv-bilish faoliyatining individualligi va personifikatsiyasi yaxlitligini

izchil ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "O'qish va yozuv" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'iga asosan berilgan 233-0394-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, nofilologik ta'lim yo'nalishlarida xorijiy tillarni o'qitishda umummadaniy kompetensiyaga doir o'quv materiallaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun sharoit yaratilgan;

talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi xorijiy tillarni kasbiy sohaga yo'naltirishga qaratilgan shaxsiy-faoliyatli yondashuvning didaktik imkoniyatlarini adekvat baholash hamda pragmatizm, madaniy dialog, subyektivlik, funksionallik tamoyillarining qayta aloqaga kirishish intesivligiga progressiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "ESP PART I" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-110-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli texnologik blok o'quv loyihasi, mini debat, Barcamp, ishbilarmonlik o'yini, onlayn viktorina, SWOT tahlil, POPS formulasi, "Qarorlar daraxti" kabi integrativ o'qitishga yo'naltirilgan kontekstli va tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalarini didaktik mazmunga ko'ra bosqichma-bosqich loyihalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "O'qish va yozuv" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'iga asosan berilgan 233-0394-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, nofilologik ta'lim yo'nalishlarida xorijiy tillarni o'qitishda umummadaniy kompetensiyaga doir o'quv materiallaridan foydalanish uchun sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning

ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nofilologik ta'lim yo'nalishdagi talabalarning umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy ta'limda “umummadaniy kompetensiya” tushunchasi va uni takomillashtirish asoslari, umummadaniy kompetensiyalarga asosiy urg'u berilganini inobatga olib, tadqiqot ishi avvalida “kompetensiya” atamasi tahlili, til va madaniyat muammosining o'rganilishi, talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o'rganilgan; nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olishi, jamiyatda o'z o'rnini egallay olishi, duch keladigan muammolarni yecha olishi, har tomonlama keng dunyoqarash va bilimga ega bo'lishi uchun, avvalo, integratsiyalashgan ta'lim asosida mujassam bilim berish, jamiyatda o'zaro kommunikatsiyaga kirishishi uchun esa chet tilini mukammal o'zlashtirish va muloqotda samarali foydalana olish kompetensiyasini takomillashtirish zarurdir.

Bugungi kunda chet tillarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tatbiq qilinmoqda. Avvalo, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga oydinlik kiritsak. “Kompetensiya” keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning mazmun va mohiyati olimlar tomonidan hanuz turlicha talqin qilinadi.

D.Delamare-Le va J.Winterton kompetensiyani ma'lum bir faoliyat talab qiladigan standart xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlikni esa ushbu talab (standart)ga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi, – deb tavsiflaydi.

A.A.Verbitskiy va M.D.Ilyazova: kompetensiya – bu inson tomonidan u yoki bu faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlar, motivlari, shaxsiy sifatleri, bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo'lgan va amalga oshgan insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy-ahloqiy sifatleri rivoji bilan tavsiflanuvchi kompetensiyasi, – deb ta'riflagan.

B.X.Xodjayevning fikricha, kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. K.J.Risqulovanning ta'kidlashicha: kompetensiya u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezonini samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi.

N.Muslimov “kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelganini bayon qilgan.

Zamonaviy ta'limda lingvomadaniy va umummadaniy kompetensiyalarga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, til va madaniyat har qanday millatning millat ekanini tasdiqlovchi asosiy vositaligini inobatga olish lozim. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini to'ldirib boradi. Til o'zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o'rinda tilsiz mukammal namoyon bo'la olmaydi.

Lingvomadaniyatning o'rganish ob'yekti madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish ob'yektiga bo'lgan yondashuvga ko'ra farqli. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Madaniy tilshunoslik tilning madaniy konseptlari, modellari va kategoriyalarini o'rganadi.

Hozirgi paytda lingvodidaktikada chet tili va milliy madaniyatni integratsiyalashgan holda o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarning lisoniy va umummadaniy savodxonligini ta'minlovchi fanlarning roli ortmoqda.

Umummadaniy kompetensiyaning milliy-madaniy (tildan tashqaridagi) darajasi quyidagi bilim va ko'nikmalarga asoslanadi: ingliz madaniyati vakillari uchun eng muhimi milliy tushunchalar, ularning maqomi, o'zbek talabalari ongidagi nufuzi to'g'risidagi mamlakatshunoslik xususiyatiga ega bilimlar; talabalarni ingliz madaniyati bilan bog'liq tushunchalarni egallash borasidagi jadal jarayonlar, milliy tushunchalar turlariga nisbatan ijobiy munosabat; professional faoliyat sohasidagi milliy-madaniy xususiyatlarni taqqoslay bilish, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi tushunchalarni o'zlashtirish va matnlar tuzishda qo'llay olish.

Tillarni o'qitishda talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish sifatida inson, til va madaniyat o'rtasidagi ob'yektiv bog'liqlikni qadriyatlar tizimi sifatida ochish hamda talaba shaxsini umummadaniy qadriyatlarni o'zlashtirish, milliy tilda aks ettirilgan boshqa madaniyatlararo muloqot an'analari va ijodiy merosni tushunishni ta'minlashdan iborat.

M.S.Kiseleva umummadaniy kompetensiya deganda, tilda o'z ifodasini topgan va mazkur til sohiblarining kommunikativ xulqini tartibga soluvchi madaniy qadriyatlar tizimini o'zlashtirish jarayonida ega bo'ladigan bilim, mahorat va shaxsiy sifatlarning majmuasini tushunadi. Tadqiqotchilar V.Teliya va Ye.Dortman umummadaniy kompetensiyani lisoniy belgilarning madaniy semantikasida ifodalangan til sohiblarining milliy mentalitetni, dunyoning lisoniy manzarasini o'ziga xos xususiyatlari, lisoniy birliklar mazmunidagi milliy-madaniy komponentni tushunish qobiliyati sifatida talqin etadi.

Shu tariqa, ta'kidlash mumkinki, har bir tushunchada til va madaniyatning o'zaro ta'sirlashuviga urg'u beriladi va lingvokulturologik kompetensiya shaxsiy sifatlari, qadriyatlar, ijtimoiy tajriba, tarixiy muhit, faoliyat usullaridan iborat tizim sifatida ta'riflanadi.

Yuqoridagilarga tayanib, xulosaga kelish mumkinki, agar talabalar quyidagi bilimlarga ega bo'lsa, umummadaniy kompetensiya shakllangan deb hisoblash mumkin: talabalar til to'g'risidagi nazariy bilimlarga ega bo'lib, ularni amaliyotda qo'llay bilsa; o'z nutqiy xulqini qo'yilgan kommunikativ vazifaga muvofiq qursa; iboraning maqsadiga qarab, lisoniy shakllarni tanlab, ularni nutqiy vaziyatga qarab o'zgartirsa; jamiyatda qabul qilingan muloqot qoidalariga qarab, og'zaki va yozma nutqiy faoliyatni tashkil etsa; turli verbal va noverbal strategiyalar vositasida til sohiblari bilan real hamkorlik sharoitlarida leksika yo'nalishidagi yetarli bo'lmagan bilimlarning o'rnini to'ldira olsa; o'rganilayotgan til mamlakatiga xos an'analar, tarixiy voqelik madaniyat, shuningdek, nutqiy hamkorlik qoidalarini o'zlashtirsa; madaniyatlararo muloqotga tayyorlash va bu borada qobiliyatga ega bo'lsa; yangi bilim, ko'nikma va harakat usullarini o'zlashtirish ehtiyojini qondirsa.

Yuqorida taklif qilingan oliy ta'lim muassasalari talabalarining umummadaniy malaka elementlari kasb ta'limiga xos asosiy jihatlarni ko'rsatish imkonini beradi. Ular mohiyatan umumadaniy kompetensiyaning shakllanganlik mezonlari hisoblanadi: motivatsiyali va qadriyatli, kognitiv, amaliy baholash, shaxsiy-ijodiy mezonlar shular jumlasidandir.

Talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida rivojlantirish va tarbiyalash, onglilik va faollik, ijodiy faollik, mustaqillik va natijaviylik, ilmiylik, nazariya bilan amaliyotning uzviyligi, ta'lim bilan hayotning bog'liqligi kabi didaktik tamoyillarga amal qilinadi.

Bu tamoyillar o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirishdagi normativ talablar hisoblanadi. Ular shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta'lim jarayoniga bo'ysundiriladi.

Shunday qilib, didaktik prinsiplar talabalarning kommunikativ qobiliyatlari va ularning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadiga mos keladi.

Shuningdek birinchi bobda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar aniqlandi (1-rasmga qarang).

Birinchi navbatda, aksiologik va affektiv komponentlarni ajratib ko'rsatish bejiz emas. Bu tenglik haqidagi umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish, umummadaniy xilma-xillikni hurmat qilish, chet el madaniyatini o'rganish zarurligini tushunish, hamdardlik, bag'rikenglik, ochiqlik va ko'p madaniyatli dunyo haqida yangi bilimlarni olishga tayyorlik, chet tilini bilish muhimligini tushunishdir. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalar tomonidan umummadaniy kompetensiyani o'zlashtirish jarayonida kognitiv komponent ham muhim rol o'ynaydi, chunki uning shakllanishi bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan nazariy bazani egallashni nazarda tutadi. Tabiiyki, kommunikativ komponent yakuniy natija bo'lib, u bilimning qadr-qimmatini amalga ohsa va muvaffaqiyatli o'zlashtirilsagina qo'llanishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot jarayoni turli madaniyatlar tashuvchilarning tillari, urf-odatlarini, qadriyatlari, xulq-atvor turlari bilan kommunikativ o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

1-rasm. Talabalarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari

Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kelajakda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalarining bir qismi bo'lgan barcha ko'nikmalarni amalga oshirishga yordam beradigan umummadaniy komponentlardir.

Nofilologik yo'nalish talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlariga ham alohida to'xtab o'tishni joiz deb topdik va ularga quyidagilar kiradi: o'qitishning shaxsga yo'naltirilganligi; bunda til shaxsining kasbiy-umummadaniy motivatsion, emotsional va kognitiv sifatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi; kompetensiyali yondashuv; chet tili o'quv faniga oid kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini va kasbiy madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini oshiradigan yondashuv asosida til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishga erishiladi; zamonaviy ta'lim makoni sharoitida kasbiy ta'lim sifatining xalqaro va milliy standartlarini hisobga olish; nofilologik yo'nalish talabalarining til tayyorgarligi tizimida shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ-umummadaniyatshunoslikka yo'nalغانlik va kasbiy-faoliyatli yondashuvlarning birligi; talabalarining umummadaniy kompetensiyalari shakllanganligi hamda ularning kasbiy kompetentligi rivojlanish dinamikasini tashxirlash va monitoring qilish; talabalar umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda nofilologik yo'nalish va ingliz tili fanlarining integratsiyasini hisobga olish.

Demak, ta'limning kasbiy vazifalarini hal etish muqarrar ravishda o'zga tildagi so'zning obrazini leksikon birligi sifatida yaratishni olib kiradi, buni esa ta'lim oluvchining xotirasi va bilishga oid faoliyatida kognitiv jarayonlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi, ya'ni so'z yoki termin strukturasi xalq madaniyati bilan bog'liq semani ajrata bilmasdan mutaxassisga madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirish imkonini beradigan umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirib bo'lmaydi. Shuning uchun original (autentik) matn asosida leksik-terminologik mashqlar tizimini yaratish leksik ko'nikmalar, umummadaniy kompetensiyalarining lingvistik komponentini bosqichma-bosqich shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishning uslubiy yondashuvlari, talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli, talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyalari tadqiq etilgan.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning eng muhim bosqichlaridan biri bu mazmun tarkibiy qismlarini tushunish, yondashuvlarni belgilash, asosiy tamoyillarni ishlab chiqish va o'rganilayotgan jarayonning qonuniyatlarini aniqlash bosqichidir. Nazariy va uslubiy yondashuvlarga tayanish muammoning terminologik makonini tartibga solish, o'rganilayotgan ob'yektning xususiyatlarini, tamoyillarini, ishlash qonuniyatlarini ochishga imkon beradi. Biroq, pedagogik tadqiqot asoslanishi mumkin bo'lgan uslubiy yondashuvlarning ko'pligi ba'zan to'g'ri yo'nalishni tanlashni qiyinlashtiradi, pedagogik modelning hayotiyliigi bevosita aniq metodologik asosga bog'liq.

Tadqiqotda kompetensiyaga asoslangan, aksiologik va shaxsiy-faollikka, ekologik, texnologik uslubiy yondashuvlarga tayanildi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki samarali amaliy faoliyat qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim natijalarining yangi turini belgilaydi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, o'z va boshqa madaniyatlarning qadr-qimmatini bilish, umuman olganda, ta'lim talabaning yanada takomillashtirishning asosiy motivatsion dastagiga aylanadi. Bu o'z navbatida, malakali mutaxassis tayyorlash uchun o'qitishning maqsad va vazifalarini belgilashda o'qituvchi uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shaxsiy-faollik yondashuvi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan shaxsiy faolliklarini, ta'lim maqsadlari sari o'qituvchi-pedagog bilan hamkorlikdagi izlanishlar jarayonini qamrab oladi. Pedagogik amaliyotda ekologik yondashuv uslubiy funksiyani bajaradi, shuningdek, talabalarni axloqiy, hissiy va intellektual tarbiyalash muammolarini hal qilishga yordam beradi. Tadqiqotimizda nofilologik ta'lim yo'nalishida chet tilini o'qitishni tashkil etishda texnologik yondashuvdan foydalanish taklif etildi. Ta'lim sohasidagi texnologik yondashuv yoki loyihalashning eng muhim tamoyillari o'zini o'zi rivojlantirish va izchillik tamoyilini o'z ichiga oladi.

Kompetensiyaga asoslangan, aksiologik va shaxsiy faoliyat, ekologik, texnologik yondashuvlar tamoyillarini amalga oshirish chet tili darsida ma'lum ta'lim muhitini


yaratishga imkon beradi. O‘zaro hurmat va tushunish muhiti, erkin fikr almashish, umummadaniy muloqot masalalarini muhokama qilishda teng huquqli muloqot kabi tashqi omillar nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Tadqiqotda nofilologik yo‘nalishdagi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning eng adekvat (mos va funktsional) psixologik-pedagogik tamoyillari yuqoridagi yondashuvlarga ko‘ra aniqlandi. Bularga kompetensiyaga asoslangan (mustaqillik, kompetensiya darajalarini aniqlash tamoyili); aksiologik (tenglik, pragmatizm, madaniy dialog, bilim qadriyat sifatida); shaxsiy-faoliyatli (sub’ektivlik, yuqori motivatsiya, ma’naviy boyitish, hamkorlik, shakllantiruvchi faoliyat holatini loyihalash va rejalashtirish, har bir faoliyat turining natijaviyligi); ekologik (ta’lim muhitining funktsionalligi); texnologik (mustahkamlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish va tuzatish).

Nofilologik ta’lim yo‘nalishi oliy o‘quv yurtlari talabalarining chet tili darslarida faol o‘qitish texnologiyalari yordamida umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maqsadli blok; kontent-tashkiliy blok; texnologik blok; baholash va ishlash bloki; tuzatish bloki.

Ko‘p madaniyatli jamiyatda samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyor va qodir nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini uchun ijtimoiy buyurtma mavjudligi maqsadli blokda ko‘rsatilgan. Tashkiliy-tuzilmaviy modelni ishlab chiqishdan maqsad nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining chet tili darsida faol ta’lim texnologiyalari yordamida umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishdan iborat.

Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabasining umummadaniy kompetensiyasi uning kasbiy faoliyati jarayonida umummadaniy o‘zaro ta’sirning ijtimoiy-madaniy, kasbiy va kommunikativ qobiliyatlari yig‘indisini aks ettiradi. Ishlab chiqilgan tashkiliy-tuzilmaviy modelning mazmunli bloki chet tili darsida nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirishda pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini aks ettiradi. O‘z navbatida, umummadaniy kompetensiyani amalga oshirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish kerak. Shundagina talaba umummadaniy muloqot jarayoniga mustaqil tayyorgarlik ko‘radi, o‘z bilim va malakalarini, qobiliyatlarini sinashga erishadi. Hatto xorijlik talabalar bilan hamkorlikda ijodiy tadbirlar tashkil qilishlari ham mumkin. Texnologik blok nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining chet tili darsida umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish jarayoniga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini tashkil etishda qo‘llanadigan faol o‘qitish shakllari va texnologiyalarini pedagogik, tashkiliy va tarbiyaviy faoliyatning yaqin aloqasi sifatida tavsiflaydi. Baholovchi-samarali blok, tabiiyki, taqdim etilgan tashkiliy-tuzilmaviy modelning natijaviylikka asoslangan qismidir. Modelni amalga oshirish jarayonida eng muhim vazifa natijani baholash, ya’ni, nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlashdan korreksion blokka o‘tish hisoblanadi.



2-rasm. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli

Taklif etilayotgan tashkiliy-tuzilmaviy modelning korreksion bloki alohida bo'g'in sifatida ajratilgan, chunki har qanday modellashtirish natijasi pedagogik faoliyat jarayonida tahlil qilinishi va tuzatilishi kerak. Gumanitar tizimlarning ishlashi va o'zaro ta'sirida noaniqlik prinsipiga ko'ra, nofilologik ta'lim yo'nalishidagi universitet talabasining umummadaniy kompetensiyasining rivojlanish darajasini aniqlashda og'ishlar ehtimoldan holi emas, deb taxmin qilish mumkin. Modelda tasvirlangan jarayonning retrospektiv tahlili kamchiliklarni, mumkin bo'lgan xatolarni topish va ularni ketma-ket tuzatish imkonini beradi.

Shunday qilib, umummadaniy kompetensiyani takomillashtirish jarayonining asosiy tarkibiy bloklarini modellashtirib, pedagogik texnologiyalar masalalariga bag'ishlangan zamonaviy pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, biz ushbu tadqiqotning amaliy qismini nazariy bilimlarning samaradorligini sinab ko'rishga bag'ishlash mumkin deb hisoblaymiz va chet tili darslarida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyasini takomillashtirish uchun pedagogik texnologiyalarni tanlash va amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur, deb hisobladik.

Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida eng muhim vazifa – talabaga kasbiy muloqot bo'yicha chuqur va tizimli bilim berish bilan birga nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini umummadaniy odob-axloqning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish vazifasi turadi. Milliy va umuminsoniy madaniyatning uyg'unlashuv nuqtalari sifatida insonparvarlik, tolerantlik, o'zaro hurmat, ezgu goya va maqsadlar uchun jipslashish va birgalikda harakat qilish kabi sifatlarni rivojlantirish bilan kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlarini uzviylashtirish, umummadaniy muhitda samarali professional muloqotga tayyorgarlik ko'rish bilan ifodalanadi. Shu maqsadda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'qitishda ularning qiziqishi, motivatsiyasi va bilish faolligini oshirishning samarali usullari shaxsiy-faoliyat yondashuviga ko'ra, faoliyatining muvaffaqiyatli natijasini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil qilinish bosqichlari yoritilgan va natijalar tahlil qilingan.

